

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINING MILLIY TAJRIBASI

**Shaxnoza Ismatova**

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti  
yetakchi mutaxassisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining shakllanishi, huquqiy asoslari va milliy tajribasi tahlil qilinadi. Unda korrupsiyaga qarshi siyosatning asosiy yo‘nalishlari, davlat va jamoatchilik institutlarining o‘zaro hamkorligi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda nazorat va monitoring mexanizmlarining o‘rni yoritiladi. Milliy tajribaning o‘ziga xos jihatlari sifatida davlat organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish hamda xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, milliy tizimning amaliy samaradorligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Korrupsiya, milliy tajriba, huquqiy asos, davlat siyosati, shaffoflik, ochiqlik, nazorat mexanizmlari, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, xalqaro standartlar, institutsional islohotlar, monitoring, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarni tartibga solishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib borilmoqda. Ushbu islohotlar Yurtboshimiz ta‘biri bilan aytganda, “...bugungi kunda islohotlarimiz samarasi ko‘p jihatdan to‘rtta muhim omilga – ya‘ni qonun ustuvorligini ta‘minlash, korrupsiyaga qarshi qat‘iy kurashish, institutsional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog‘liq”.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi.

Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari keng joriy etilib, ularning faoliyatida ochiqlikni ta‘minlash, jamoatchilik oldida hisobdorlikni oshirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmogda.

Davlat boshqaruvida byurokriyani kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini yaxshilash, raqamlashtirish orqali “inson

omili”ni kamaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatining muhim jihatlarini namoyon etmoqda.

Jumladan, “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan korrupsiyaga qarshi ekspertizani o‘tkazuvchi subyektlar, shuningdek korrupsiyaga qarshi ekspertiza to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini monitoring qilish tartibi hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar sanab o‘tildi.

Sohada davlat siyosati izchilligini ta‘minlash maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023 - 2024 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi qabul qilinib, ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar ro‘yxati 35 tadan 40 taga kengaytirildi. Davlat xizmatchilari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlarda sovg‘a olinishi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi nizom tasdiqlandi.

Yuqorida ta‘kidlagan mamlakatimiz oldidagi ustuvor vazifalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, korrupsiyaning oldini olishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan tashqari bunday jinoyatlar uchun jinoyat-huquqiy ta‘sir choralari Asosiy qonunimiz va Jinoyat qonuni prinsiplaridan kelib chiqib takomillashtirish, shuningdek, bu tizimni isloh qilish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jinoyat-huquqiy siyosat istiqbollari ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirda respublikamizda huquqiy demokratik davlatni barpo etish sharoitida korrupsiya kabi salbiy ijtimoiy voqelikning oldini olish va unga qarshi kurash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi borasida aholiga ushbu illatning salbiy jihatlarini yuzasidan batafsil ma‘lumotlar yetkazish maqsadida keng ko‘lamli ishlar hamda aholiga poraxo‘rlik va ta‘magirlikka yo‘l qo‘ymaslik kabi dolzarb masalalar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun unga zamin yaratadigan shart-sharoit yaratadigan omillarni bartaraf etish, samarador ta‘sir choralari ishlab chiqish va tatbiq qilish zarur.

Bu illatga qarshi kurashni jahon talablari asosida shakllantirish maqsadida 2008-yilda mamlakatimiz BMTning “Korrupsiyaga qarshi” konvensiyasini ratifikatsiya qildi va shu yili “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu konvensiya talablari korrupsiyaga oid milliy qonunchilikni yana bir bor tahlil etish, zaruriy huquqiy me‘yorlarni qabul qilish va shu orqali korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishni, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarini o‘z ichiga qamrab olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablarini amaliyotga tatbiq etish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida, dastur tasdiqlandi hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning amalga oshiradigan vazifalari belgilab berildi.

Qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to‘liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, shuningdek korrupsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan to‘liq bartaraf etishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga qaratilgan.

Davlat organlarida tarbiyaviy profilaktik ishlarni kuchaytirish, mansabdor shaxslarning munosib xulq-atvorda bo‘lishini ta‘minlash, burchga sadoqatini mustahkamlash, tizimga dog‘ tushiruvchi turli salbiy holatlarga yo‘l qo‘yilishini oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, har bir fuqaro (mansabdor shaxs, xodim, xizmatchi)ga o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslardan boshqacha naf ko‘rish taqiqlanishi, shuningdek ular korrupsiya holatlariga qarshi kurashishi va ularning profilaktikasida faol qatnashishi, xodim o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarini, ularning huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to‘g‘risida, shuningdek boshqa davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan har qanday holatlari haqida xabardor qilishi shart.

Davlat va xususiy sektor faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat xorijiy tajribalar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish, balki ushbu sohada samarali tizim sifatida qo‘llanilib kelayotgan ma‘lum xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish hisoblanadi.

Ulardan biri ushbu sohada keng qo‘llanilib kelayotgan samarali va ta‘sirchan vositalarning majmui bo‘lgan korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish mexanizmi hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish mexanizmi o‘z ichiga korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish, kelib tushgan korrupsiya holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qayta ishlash, xabar beruvchilarni himoya qilish, xabar beruvchilarni rag‘batlantirish, ayrim holatlarda xabar berish majburiyatini yuklash hamda xabar bermaganlik uchun javobgarlik choralari belgilanishini o‘z ichiga oladi.

Korrupsiya faktlari to‘g‘risida xabar beradigan shaxslarni himoya qilishni nazarda tutuvchi qoidalar ichki qonunchilik uchun yangi bo‘lganiga qaramay, u uzoq vaqt davomida ba‘zi jinoyatlar sodir etilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qiluvchi shaxslarning pozitsiyasini tartibga soluvchi qoidalarni hamda jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi qoidalarni o‘z ichiga olgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, fikrimizcha, korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish mexanizmining maqsadi korrupsiya xavfi va bu haqda xabar berish tartibi (whistleblowing policy), korrupsiya holatlari haqida xabar beruvchilarning himoya choralari, korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish majburiyati, korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar bermaganlik uchun javobgarlik masalalari, korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berganlik uchun rag‘batlantirish choralari ishlab chiqish hamda ushbu chora-tadbirlarni tizimli ravishda ishlashini tashkil etish hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov F.B. Davlat xizmatida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 121 b. URL: <https://library-tsul.uz/davlat-xizmatida-korrupsiya-va-manfaatlar-toqnashuvi-maxmudov-f-b-2023/>.

2. Berdiyev A.T., Xaydarov M.M., Kuskarov T.R. Korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlik: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. B.152.

3. Qosimov B. Xorijiy mamlakatlarda manfaatlar to‘qnashuvining huquqiy tartibga solinishi // “Yangi O‘zbekistonda konstitutsionalizmni mustahkamlash masalalari: milliy va xorijiy tajriba” Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami. – T.: TDYU, 2021. B.137–138.

4. Otajonov A.A. Davlat xizmatchilarida korrupsiyaga qarshi murosasizlik xulq-atvorini shakllantirishga kompleks yondashuv // Yuridik axborotnomasi. – 2020.– 5-son, 1-jild. URL: [https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/10/NamDU-ARM-15088-KORRUPSIYAGA\\_QARSHI\\_KURASHISH\\_VA\\_KOMPLAYENS\\_NAZORAT\\_TIZIMI.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/10/NamDU-ARM-15088-KORRUPSIYAGA_QARSHI_KURASHISH_VA_KOMPLAYENS_NAZORAT_TIZIMI.pdf)